

Mundarija

Kirish	
1-bob. Web sayt yaratish va internet tarmog`ida foydalanish bo`yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili.....	
1.1. Sahifa va saytlarni yaratish va boshqarish tizimlari taraqqiyotining ustivor yo`nalishlari	
1.2. Олий таълимда компьютерлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш йўллари	
1.3. Masalaning qo`yilishi va uning amaliy ahamiyati	
2-bob. Web sayt yaratish dasturiy vositalari, turlari va muammoga moslarini tanlash.....	
2.1. Web sayt yaratish tillari va ularning imkoniyatlari	
2.2. Dinamik va statik saytlar yaratishning dasturiy vositalari	
2.3. Xampp server dasturini o`rnatish va imkoniyatlaridan foydalanish	
3-bob. Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid Web sayt ishlab chiqish va qo`llash	
3.1. Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid ma`lumotlarni shakllantirish va strukturaga solish	
3.2. Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni ishlab chiqish....	
3.3. Yaratilgan elektron kutubxonadan foydalanish yo`riqnomasini ishlab chiqish	
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	
4.1. Компьютерлар билан ишлаганда техника хавфсизлиги.....	
4.2. Kompyuter bilan ishlashda operatorning texnika xavfsizligi qoidalari..	
4.3. Kompyuter xonalarida stol va stullarning joylashuviga bo`lgan talablar ..	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	
Ilova.....	

Kirish

«Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur».

I. A. Karimov

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning taqdirida yuqori malakali mutaxassislarining roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan, zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi». Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yetuk mutaxassislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tatbiq etilmoqda.

Ta'lim tizimidagi chuqur va keng ko'lamli islohotlarning mazmuni va amalga oshirish muddatlari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlanganidek, «kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish» lozim.

Ma'lumki, bugungi kunga qadar axborotlashtirish va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha bo'yicha qo'plab qaror va nizomlar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son, 10-modda) va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 sentyabrda PQ-2042-son «Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 39-son, 508-modda), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 dekabrda 355-son «O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi hamda Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 52-son, 589-modda) hamda Dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarining milliy reestri to'g'risidagi nizomlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi shakllanayotgan global axborot jamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hukumatimiz tomonidan respublikamizda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari belgilandi.

Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyat ta'minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi.

Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini yanada oshiradi, o'z navbatida o'qituvchini ham, talabani ham ijodiy izlanishga undaydi. Bunda o'qituvchiga o'quv jarayonida tashkil etishda mavjud elektron adabiyotlardan, mul'timedia vositalaridan, o'rgatuvchi dasturiy ta'minotlar va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanishi talabaga mavzu haqida ko'proq ma'lumotlar olish imkoniyatini yaratadi. Hozirgi kunda har bir mutaxassisdan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini bilish va uni amaliyotga qo'llay olish talab qilinmoqda.

Bitiruv ishi mavzusining dolzarbligi: Hozirgi kunda web-dasturlash tillarini yaxshi o'zlashtirish uchun yaxshi esda saqlash qobiliyati, aniq fikrlash, aqliy fikrlashning yuqoriligi muhim masala sanaladi. Ammo insonlar dunyoqarashining har-xilliligi intellekt va bilish jarayonlarining o'ziga xos bo'lishiga ta'sir etmay qolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish, kompyuter texnologiyalarining

imkoniyatlarini o'rganish, zamonaviy saytlar yaratish, oliy o'quv yurtlari hamda kasb-hunar kollejlariidagi o'qitish bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

SHu o'rinda prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning 2012 yil 21 mart, PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari keltirib o'tilgan quyidagi "...axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini, shu jumladan axborot xavfsizligini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish holatini hisobga olgan holda axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish..." fikrlari axborot kommunikasiya texnologiyalari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar davlatimiz miqyosida e'tiborda ekanligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni ishlab chiqish (Kasb ta'limi (Informatika va AT kafedrası yo'nalishi misolida)) masalasi zamirida ta'lim yo'nalishining mavjud mutaxassisliklar bo'yicha adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasini yanada boyitish, shuningdek mavjud adabiyotlarni bitta bazada shakllanitirishni rejalashtiriladi.

Bitiruv ishining maqsadi va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tishi mumkin:

- Kafedraning axborot kutubxonasini shakllantirish
- Kafedra tomonidan o'qitiladigan fanlar bo'yicha adabiyotlarni elektron shaklda to'plash
- Elektron shakldagi adabiyotlarni fanlar kesimida elektron bazasini shakllantirish
- Internet tarmog'ida yaratiladigan saytni joylashtirish
- Talabalarni fanlar bo'yicha elektron adabiyotlardan foydalanishlarini ta'minlash maqsadida adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish

Hozirgi davrda zamonaviy CMS hisoblanuvchi sistemalarda sayt tayyorlashni, kengaytirgichlar bilan ishlashni shakllantiruvchi keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar, dasturiy ta'minotlar yaratish.Contentni boshqarish tizimi (ing.CMS)da dinamik saytlar yaratish sistemasini amaliy jihatdan o'rganib chiqish imkoniyati beriladi.

Bitiruv ishining tuzilishi: kirish qismi, ikki bob, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv ishining birinchi bobida bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, mavjud manbalar tahlili, Web saytlarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha mavjud manbalar tahlili, Internet tarmog'ida mavjud Web saytlardan o'quv jarayonida foydalanish samaralari, Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati hamda Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni ishlab chiqish mavzusi bo'yicha masalani yechishda ilg'or xorijiy tajribalar kabi masalalar mohiyati ochib berilgan.

Bitiruv ishining ikkinchi bobi Web sayt yaratish dasturiy vositalari, turlari va muammoga moslarini tanlash deb nomlanadi. Unda Web sayt yaratish tillari va ularning imkoniyatlari, Dinamik va statik saytlar yaratishning dasturiy vositalari hamda Xampp server dasturini o'rnatish va imkoniyatlaridan foydalanish yuzasidan manbalar ishlab chiqilgan.

1-bob. Web sayt yaratish va internet tarmog`ida foydalanish bo`yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar tahlili

1.1. Sahifa va saytlarni yaratish va boshqarish tizimlari taraqqiyotining ustivor yo`nalishlari

Ma'lumki, butunjahon tarmog`ida elektron sahifalar va saytlarning turli shakllari asosidagi web-sahifalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu holat O'zbekistonda, ya'ni Uz domenida ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Kimdir o'z shaxsiy sahifasini yaratsa, kompaniya va firmalar korporativ saytlarini, ta'lim muassasalari ta'limga oid saytlarni hamda elektron o'quv materiallarini yaratmoqda. Yana kimdir o'z kundaliklarini, ya'ni bloglarini yaratish ustida ish olib bormoqda.

Shu bilan birga, yirik portallarning faoliyati ham rivojlanmoqda. Bularning hammasi Web saytlarni yaratish bilan bog`liq turli dasturlash tillari va dasturiy vositalari asosida yaratilmoqda. Web-sahifalarni yaratish bilan shug`ullanuvchi mutaxassislarning ba`zilari HTML tilida, ba`zilari PHP tilida, yana ba`zilari Web saytlarni yaratish va tahrirlash dasturiy vositalari yordamida, ishning mohiyatidan kelib chiqib ba`zi shu sohani mutaxassislari takomillashib borayotgan CMS (Content Management System) deb ataluvchi tizimlar yordamida web-saytlar, sahifalarni yaratmoqda. O`z-o`zidan savol tug`iladi, elektron sahifa yoki saytlarni yaratishda WYSIWYG (What You See Is What You Get) yoki CMS degani o`zi nima? Bu tizimni nima ekanini tushunish uchun, avvalo, web-sahifalar qanday yaratilishi haqida to`xtalib o`tish lozim.

Ma'lumki, Web-texnologiyani (Internet-texnologiya) o`rganishni Web-dizaynning quyidagi uchta tushunchalari mavjud: Web-sahifa, Web-sayt va Web-server.


Web-sahifa – o`zining unikal adresiga ega bo`lgan va maxsus ko`rish dasturi yordamida (brauzer) ko`riluvchi xujjatdir. Unga matn, grafika, ovoz, video yoki animasiya ma`lumotlar birlashmasi - multimediyali xujjatlar, boshqa hujjatlarga gipermurojaatlar kirishi mumkin.

Web-sayt – bir qancha web-sahifalarning mantiqiy birlashmasi.

Web-server – tarmoqqa ulangan kompyuter yoki undagi dastur hisoblanib, umumiy resurslarni klientga taqdim etish yoki ularni boshqarish vazifalarini bajaradi. Web-serverlar ma`lumotlar bazalari va multimediyali ma`lumotlarni bir biriga moslashtiradi. Web-serverda Web-sahifa va Web-saytlar saqlanadi.

Biz Internet tarmog`idagi Web-sahifalarni ko`rishimiz uchun WWW (World Wide Web) deb ataluvchi servisdan foydalanamiz.

World Wide Web (WWW, Butun dunyo o`rgemchak to`ri) – bu klient-server texnologiyasi asosida tashkil etilgan, keng tarqalgan Internet xizmatidir (1-rasm).



Rasm № 1

Web texnologiya klassifikatsiyasi

Shaxsiy elektron hisoblash mashinalarida formatlashtirilgan elektron hujjat WYSIWYG (What You See Is What You Get) «Nimani ko`rayotgan bo`lsang, o`shani olasan» prinsipida ishlaydigan matn tahrirlagichlar yordamida yaratiladi. Masalan, bularga oddiy MS Word, Lexicon, AmiPro, WordPad va h.k. kabilarni keltirib o`tish mumkin.

Bunday dasturlar yordamida biz elektron hujjatni xohlagan shriftda, o`lchamda, chap yoki o`ng tomondan tekislagan holda yaratishimiz mumkin. Ammo biz ushbu elektron hujjatni internet yordamida e`lon qila olmaymiz. Sababi, uni o`qimoqchi bo`lgan boshqa bir internet mijozining shaxsiy komyuterida biz foydalangan matn tahrirlagich dasturi yoki shriftlar

oʻrnatilmagan boʻlishi yoki ishlash jarayonida turli nosozliklar kelib chiqishi mumkin. Buni oldindan aytib boʻlmaydi. Undan tashqari ushbu matnni ochishga moʻljallangan «oina»ning oʻlchamlari haqida hech qanday maʼlumotlarga ega emasmiz. SHuning uchun ham ShEHMLarda foydalaniladigan matn tahrirlagichlar va ularning «format»lash usullaridan internetda foydalanib boʻlmaydi.

Bunday noqulayliklarning oldini olish maqsadida yangi HTML (Hyper Text Markup Language) «gipermatnlarni belgilash tili» protokoli, standarti yaratildi. Aslida, gipertekst gʻoyasi 1945 yilda AQSH prezidentining ilmiy maslahatchisi Vanevar Bush tomonidan kiritilgan boʻlib, u oʻsha vaqtda “Memex” (memeks) elektromexanik informasion tizimini yaratish taklifi bilan chiqqan, lekin uning taklifi inobatga olinmagan edi. 20 yildan soʻng, yaʼni 1965 yilda Teodor Nelson “gipertekst” terminini fanga kiritdi va “chiziqsiz” matnlar bilan bogʻliq baʼzi gʻoyalarni amalga oshirdi. 1968 yilda “sichqoncha” manipulyatori asoschisi D.Enjilbard (Doug Engelbart) tipik gipermatnli interfeysdan iborat (sistema) tizim asosida oʻz ishini namoyish qildi. Bu standart bir qancha maxsus operatorlar majmuasidan iborat boʻlgan HTML dasturlashtirish tili boʻlib, uning yordamida elektron hujjatlarni internetda bevosita eʼlon qilish mumkin edi.

1989-yilda Tim Berners-Li tomonidan World Wide Web, yaʼni Bununjahon oʻrgimchak toʻri ixtiro qilinganidan boshlab uning har bir foydalanuvchisi oddiy boʻlsa-da, oʻz web-sahifasini yarata olish imkoniyatiga ega boʻldi. Lekin, buning uchun HTML (Hyper Text Markup Language) tilini bilish shart edi. Turli xil IT-kompaniyalari tomonidan bu ishni osonlashtiruvchi bir qancha Microsoft FrontPage, Adobe Dreamweaver kabi dasturiy paketlar ishlab chiqildi. Bunday dasturlardan baʼzilari sayt yaratishning barcha bosqichlarini (HTML-kodni yozishdan bu kodni serverga yuklashgacha) boshqarishni oʻz zimmasiga oldi. Shu bilan birga, koʻpgina hollarda (aynan oddiy sahifalarni yaratishda) foydalanuvchi bu kodni bilishi shart boʻlmagan. Sababi bu dasturlarda web-sahifalarni yaratishning vizual usullaridan foydalanilgan.

Axborot texnologiyalarining tez rivojlanish borishi natijasida HTML-redaktorlarining barcha afzalliklariga qaramay, saytni boshqarish vaqt oʻtgani sayin va yangi maʼlumotlar qoʻshilishi bilan qiyinlashib boraverdi. Chunki axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan web-saytlar ham rivojlanib bordi. Sayt xaritasini yaratishdek oddiy funksiyani qoʻshish uchun ham web-yaratuvchilar tomonidan ancha-muncha mehnat talab etilar edi. Axir buning uchun barcha ilovalarni koʻrib chiqish, sahifalar orasidagi bogʻliqliklarni tekshirish, menyuni yaratish, forumni qoʻshish kabi ishlarni bajarish lozim edi. Bu esa doimiy diqqatni va juda koʻp vaqtni talab etardi.

Endi savol tug'ilishi mumkin: oddiy HTML kodida yozilgan sahifa bilan elektron sahifa va saytlarni yaratish dasturiy vositalari nimasi bilan farq qiladi? Avvalambor, HTML kodi bilan yozilgan sahifalarni tekshirish, tahrirlash uchun juda ko'p buyruqlarni yoddan bilish, ularni formatlarini eslab qolish talab qilinadi, qolaversa har bir element uchun ham dasturlash kodlarini, ko'plab buyruqlarni bilish talab qilinadi.

Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, index.html sahifasiga murojaat qildi deylik. Web-server o'zidagi web-sahifalar katalogini ko'rib chiqadi va agar index.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi xabarni ("Fayl topilmadi") yetkazadi.

Elektron sahifa va saytlarni yaratish dasturiy vositalari yordamida esa, bundan kichik hatoliklarni oldi olinadi. Aytaylik, siz 100 sahifalik (bu unchalik ko'p emas) oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-kech siz bu sayt dizaynini, ko'rinishini o'zgartirmoqchi bo'lasiz. U holda esa siz shu 100 sahifani qo'lda o'zgartirib chiqishingizga to'g'ri keladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu sahifalarni kompyuterindagi lokal serverga yuklab olish, undan so'ng tahrirlab, kerakli o'zgartirishlarni kiritishingiz va oxirida yana serverga yuklash kerak bo'ladi.

Ma'lumki, HTML yaratuvchilar 2 vazifani hal qilishga uringanlar:

- Dizaynerlarga dokument yaratishning oddiy vositasi bo'lgan gipermatnli ma'lumotlar bazasini berish;
- O'sha momentda paydo bo'lgan (mavjud bo'lgan) gipermatnli ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchi interfeys to'g'risidagi tasavvurni tasvirlash (aks ettirish, ko'rsatish) uchun bu vositani yetarlicha qudratli qilib yaratish.

Har qanday gipermatn kitobga o'xshagan bo'ladi va uni turli tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin bo'ladi: xususan boblarga, paragraflarga, bo'limlarga, bo'limcha va abzaslarga bo'lsa bo'ladi.

Ana endi dasturiy vositalar yordamida asosiy web sahifalarni yaratishni ko'rib ko'rib chiqaylik.

Web sahifalarni yaratish dasturiy vositalari Web-ishlanmalarni dasturlashsiz tezda yaratish va unda professional ravishda tayyorlangan hujjatlarni nashr etish imkoniyatini beradigan maxsus vosita hisoblanadi. Web sahifalarni yaratish dasturiy vositalari o'ziga xos maxsus interfeysga ega bo'lib, HTML sahifasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan instrumentlar, shu jumladan uzoqdagi ko'p marta foydalanish rejimi va WYSIWYG rejimi ham shunday. Dasturiy

vositalar tarkibiga web-sahifalar va HTML–sahifalarni interaktiv tadqiq qilishda ishlatiladigan master va shablonlar kiradi.

Elektron saytlarni yaratish dasturiy vositalari odatda, qandaydir saytning asosiy bosh sahifasini anglatadi va bu sahifalarni yaratuvchi dasturlar ham shu nom bilan ataladi. Dasturlar ishlashda juda oddiy, lekin juda ko'plab ishlarni bajarishga imkon beradi.

Bunday dasturiy vositalar sifatida Web Builder, Namo Web Editor, Web Creator, MS Frontpage, A4DeskPro, Easywebsitepro, Antenna Web Design Studio va boshqa ko'plab dasturlarni keltirib o'tish mumkin. Web sahifalarni to'g'ri ko'rish xususiyatlarini ko'rib chiqish, grafika bilan bog'liq muammolarni, saytni har xil multimediali to'ldirish variantlarini, sahifaning mazmunli qismi va uning yuklash tezligi orasidagi balansni topishga imkoniyat yaratib beradi. Web sahifalarni yaratish dasturiy vositalarida qaror va usullar to'plamini ko'rib chiqishdagi kundalik ishlarimiz ma'lumotlardan foydalanib, sanoat saytlarini bajarish mumkin. Natijada yaratiladigan sahifalarni bezashga bog'lash va u bilan distansion rejimda to'g'ri ish tashkil etish mumkin bo'ladi. Elektron tijorat uchun ham elektron qo'llanma va darsliklar yaratish uchun ham uzluksiz axborotli xavfsiz sahifalarni vositalarini tashkil qilish mumkin. Bu ishlarning barchasi dasturlashsiz olib beriladi, maxsus dasturiy vositalar yordamida olib boriladi.

Endi quyidagi elektron sahifa, qo'llanma va darsliklarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalarni qisqacha tavsiflab o'taylik:

"Web-Builder CMS" – zamonaviy yuqori funksiyalarga ega bo'lgan, Internet tarmog'ida boshqarish va intranet tarmog'ida loyihalashtirish uchun mo'ljallangan dinamik va statik saytlarni yaratish uchun mo'ljallangan tizim hisoblanadi. CMS bozorida bugungi kunda juda ko'plab dasturiy vositalar yaratilmoqdaki, ular ichida bu dasturiy vositaning imkoniyatlari juda yuqori baholanmoqda. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.WYSIWYGWebBuilder.ru.

Dreamweaver – HTML kodli sahifalarni yaratishda o'ta qulay hisoblangan dasturdir. Albatta o'z kuchi va vazni bilan imkoniyatlari ko'p hisoblangan boshqa dasturlar ham bor. Mana kancha yildirki HTML yaratadigan dasturchilar ikki kurinishda yaratishmokka, biri bloknotli va progressiv-xaqiqiy guruhlar faqat bloknotda yozishadi. Bu bloknotda yozish inson uchun ko'rishga oson bo'lgani uchun yozishadi. Lekin vaqt degan muammoga duch kelishi aniq. Bu esa, minutda bajariladigan ishni soatda bajarilishiga olib keladi. Adobe Dreamweaver – esa, HTML tilini uncha yaxshi bilmaydiganlar uchun ham qulay hisoblanadi. . Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.Dreamweaver.ru

A4DeskPro – bu dasturiy mahsulot ham internet tarmog'i uchun web sahifalar va saytlarni yaratish, elektron qo'llanma va darsliklarni yaratish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulot, ya'ni vizual redaktorlardan biri hisoblanadi. Dastur 100 dan ortiq o'zining maxsus shablonlariga ega. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.a4deskpro.ru.

Namo Web Editor – o'zining unikal shablonlari hamda ichki redaktorlariga ega bo'lgan kichik sahifalarni hamda elektron o'quv materiallarini yaratishga mo'ljallangan dasturiy vosita hisoblanadi. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.namowebeditor.ru.

FrontPage – kompleks dastur bo'lib, Web sahifalarni yaratish va tahrirlash uchun ishlatiladi. Front Page express dasturi Internet tarmog'iga yoki Intranet sahifalari uchun yangi korporativ HTML formatidagi hujjatlarni tez va sifatli hosil qilish, ular bilan aloqalarni tekshirib ko'rish hamda ular bilan muloqotlarni cheklashda foydalaniladi.

CoffeeCup Visual Site Designer – ushbu redaktorning ishlash prinsipi boshqa sahifa yaratuvchi dasturlar kabi bo'lib, unda mavjud shablonlar asosida yangi sahifalarni yaratish, filmlarni, rasmlarni, animasiya, turli jadvallarni, kalendar va formalarni qo'shish imkoniyatlari mavjud.

WebSite X5 –dastur versiyasi 2013 yildan ishlab chiqarilgan bo'lib, uni tekin va sotuvdagi variantlari mavjud. WebSite X5 dasturida yaratiladigan Web saytni ketma-ketligi aniq ta'minlanishi lozim bo'ladi. Bu dasturda ham tayyor shablonlardan foydalanish yoki yangi yaratish imkoniyatlari mavjud. WebSite X5 – ko'p funksiyali dastur bo'lib, unga turli ob'ektlarni qo'yish yoki boshqa sahifalarni o'rnatish imkoniyatlari mavjud. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: <http://htmleditors.ru/List3/WebsiteX5.html>

Xara Web Designer - juda yaxshi lekin o'rganishga biroz qiyinroq bo'lgan dasturiy vosita hisoblanadi. Dastur tayyor shablonlar asosida saytlarni yaratish, yoki alohida yangi saytni shakllantirish imkonini beruvchi maxsus redaktoriga ega. Yaratilgan sayt tayyor bo'lganidan keyin html – ga maxsus o'tkaziladi. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: http://htmleditors.ru/List3/Xara_Web_Designer.html

Site Studio - bu dasturiy vosita asosan o'zida mavjud shablonlar asosida sayt yaratish imkonini beradi. Bu dasturda sayt yaratish katta mehnat talab qilmaydi, chunki bu dastur o'rganishga ham, foydalanishga ham juda oson sayt hisoblanadi. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: <http://htmleditors.ru/List3/SiteStudio.html>

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida yaratiladigan sahifalarni tez va oson ravishda yaratish mumkin. Ammo hech qaysi dasturiy vosita tayyor holdagi saytni taqdim etmaydi. Buning uchun dasturiy vosita imkoniyatlarini bilish, harakat va mehnat talab etiladi. Yaratilayotgan sahifa boshqalarnikiga o'xshamasligi, dizayn jihatdan takrorlanmas va original bo'lishi uchun esa shaxsiy g'oyalar va qobiliyatlarni ishga solish lozim bo'ladi.

1.2. Олий таълимда компьютерлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш йўллари

Фан-техника ютуқлари натижасида юзага келган ўзгаришлар ўқув юртларидаги ўқитиш тизими зиммасига янгича талабларни қўймоқда. Бунинг натижасида ўқув юртларида барча фанларни ўқитишда ҳам замонавий техника воситаларидан, шу жумладан компьютерлардан кенг фойдаланишга катта эътибор қаратилмоқда. Ҳукуматимиз раҳбарияти томонидан олий таълимни ислоҳ қилиш тўғрисидаги бир қатор қарорлар, қонунлар ишлаб чиқилдики, бу ўз навбатида ўқув юртини замонавий техника воситалари билан тўлиқ таъминлашни тақозо этади. Ҳозирги кунда энг замонавий саналган компьютер, компьютер технологияси каби техник воситаларнинг талабга жавоб берадиган комплексларини яратиш асосий талаблардан биридир. “Таълим тўғрисида”ги қонунда кўрсатилгандек, таълим жараёнининг сифати ва замонавийлигини техника воситаларидан унумли фойдаланиб, талабга жавоб берадиган машғулотларни ўтишни белгилайди. Бу жараён дарснинг самарадорлигини оширишга қаратилган бўлиб, компьютер техникасига эга бўлишдек малакани талаб этади. Фан дастурлари талабларидан келиб чиқиб, замонавий дарсларни юқори савияда ўтказишда электрон дарсликлар алоҳида ўрин тутаяди. Бунинг учун эса, ўқитувчи биринчи навбатда компьютер технологиясини мукамал ўзлаштирмоғи зарур.

Ҳаммага маълумки компьютердан фойдаланишни ташкил қилиш учун махсус кўрсатмалар бериш билимга эга бўлмоқ керак. Ушбу кўрсатмалар ёрдамида компьютерга уланган барча қурилмаларнинг ишини бошқариш, улар ўртасида алоқа ўрнатиш, маълум ишларни бажариш мумкин. Бундай фойдаланиш компьютер дастури деб аталади. Бу дастурлар 3 турга бўлинади: фойдаланувчи бевосита ишлаши учун мўлжалланган дастурлар - *амалий дастурлар* дейилади. Компьютер қурилмаларини ишчи ҳолатини назорат қилувчи дастурлар *тизимли дастурлар* дейилади. Компьютер учун янги дастурий тизимни таъминлаш имкониятини берадиган дастурлар *инструментал* дастурлар дейилади.

Компьютер асосида янги мавзунини ўрганишдан мақсад, тил имкониятларидан унумли фойдаланиб, ўқитиш сифати ва тезкорлигини оширишдан иборатдир. Чунончи, Интернетдан фойдаланиш катта аҳамият касб этади. Интернетдан фойдаланар эканмиз, аввало таълим тизимидаги қўллаш мумкин бўлган масофали ўқитиш тизимини алоҳида айтиш лозим. Бунда Интернет орқали маълум масофада турган дарс жараёнини ёки ахборотни тез ва сифатли олиш ёки юбориш амалга оширилади.

Бундан ташқари мультимедиа деб номланувчи шакл ҳам мавжуд бўлиб, у бир пайтнинг ўзида маълум масофадан туриб дарс жараёнида қатнашиш, имконини беради. Компьютер монитори орқали дарс жараёнини кузатиш, саволлар қўйиш ва саволларга жавоб бериш уммкин. Бунинг учун бевосита керакли дастурий таъминотни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Шуни унутмаслик керакки, янги педагогик технологияларни ишлаб чиқиш ва уларни таълимга жорий қилиш билан бир қаторда компьютерли ўқитишни талабалар руҳиятига ва ақлий ривожланишига таъсирини доимо назорат қилиб бориш мақсадга мувофиқдир. Бунда компьютерлардан фойдаланиб ўқитишда ва ўқитиш жараёнини ташкил қилишда қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратиш зарур:

1. Ҳар бир талабанинг билиш фоллигини бошқариш
2. Ўқув фаолиятини “Ўқитувчи-компьютер-талаба” тизим кўринишида бошқариш.
3. Талабаларнинг фаолияти ва ўзаро ҳамкорлигини бошқариш.

Дарс жараёнига тайёргарлик кўрганда ушбу жиҳатларга асосий эътибонни қаратиш зарурий шарт ҳисобланади.

Талабалар билан ишлашда компьютерларнинг ўрни бениҳоя муҳим эканлигидан келиб чиқиб, ундан фойдаланишнинг асосий йўналишларини белгилаш мумкин:

- хужжатлашган ахборот (аниқ бир ўқув фани бўйича дарслик, ўқув қўлланма, китоб, газета, журнал, рефератлар, ҳисоботлар, турли мазмундаги иш хужжатлари ва х.к.) ларни Интернетдан қидириш ҳамда улардан нусха олиш, таҳрирлаш;
- талабаларга компьютерга мурожаат этишларида “тил тўсиғи”ни енгиб ўтишга ёрдам берадиган луғатлардан фойдаланиш;
- тармоқли ахборот технологияларини ташкил этиш, яъни телекоммуникацион йўл билан масофадаги ахборот истеъмолчиси билан ахборот ресурсларидан фойдаланиш имконини беради.

Хулоса қилиб айтганда, таълим тизимида компьютерлардан фойдаланиш шакли кун сайин ўзини ишончлироқ намоеън этмоқда. Бунда талаба компьютер орқали ўз билимларини янги ўзлаштирилмаган маълумотлар билан тўлдиришлари мумкин.

1.3. Masalaning qo'yilishi va uning amaliy ahamiyati

Bugungi kunda elektron saytlarni yaratish va foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog'ida nima kerak bo'lsa, qidirish va topish, undan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Lekin o'zbek tilidagi ma'lumotlarni topish va undan foydalanish uchun avval xuddi shu ma'lumotlarni bazasini internet tarmog'ida shakllantirilishi lozim bo'ladi. SHundan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishda keltirilgan Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni ishlab chiqish (Kasb ta'limi (Informatika va AT kafedrası yo'nalishi misolida)) mavzuni bajarishdan asosiy maqsadimiz ham internet tarmog'ida manbalarni qo'paytirishga o'z xissamizni qo'shish bilan birgalikda, mavzuga oid muammolarni hal qilishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishi mavzuda keltirib o'tilgan muammolarni yechishda quyidagi vazifalarni amalga oshiramiz:

- Web sayt yaratish va internet tarmog'ida foydalanish bo'yicha respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini amalga oshirish;
- Web saytlarni ishlab chiqish va foydalanish bo'yicha mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish;
- Internet tarmog'ida mavjud Web saytlardan o'quv jarayonida foydalanish samaralari tahlil qilish;
- Web sayt yaratish dasturiy vositalari, turlari va muammoga moslarini tanlash va qo'llash bo'yicha Web sayt yaratish tillari va ularning imkoniyatlarini ochib berish;
- Dinamik va statik saytlar yaratishning dasturiy vositalarini tahlil qilish va mavzuga moslarini ajratib olish;
- Xampp server dasturini o'rnatish va imkoniyatlaridan foydalanishni asoslab berish;
- Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid Web sayt ishlab chiqish va qo'llash;
- Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid ma'lumotlarni shakllantirish va strukturaga solish;
- Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni ishlab chiqish;
- Yaratilgan elektron kutubxonadan foydalanish yo'riqnomasini ishlab chiqish;
- Kafedra axborot elektron kutubxonasiga oid web saytni qo'llash va samaralarini tahlil qilish asosida baholash;
- Xayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha kompyuterning haet faoliyati xavfsizligiga ta'siri va uni oldini olish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish va tahlil qilish
- Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni yakuniga yetkazish va xulosalash. SHuningdek, kelgusida tadqiqot ishi bo'yicha amalga oshirish mumkin bo'lgan ishlarni rejalashtirish va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirib o'tish lozim bo'ladi.

2-bob. Web sayt yaratish dasturiy vositalari, turlari va muammoga moslarini tanlash

2.1. Web sayt yaratish tillari va ularning imkoniyatlari

Barchaga ma'lumki, butunjahon tarmog'idagi veb-sahifalar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bu holat O'zbekistonda, ya'ni Uzneta ham jadallik bilan amalga oshmoqda. Kimdir o'z shaxsiy sahifasini yaratsa, kompaniya va firmalar korporativ saytlarini yaratmoqda. Yana kimdir o'z kundaliklarini, ya'ni bloglarini olib boradilar.

Shu bilan birga, yirik portallar faoliyati ham rivojlanmoqda. Bularning hammasi esa biror dasturiy vosita yordamida yaratiladi. Kimdir HTML tilida, kimdir PHP da, yana kimlardir CMS deb ataluvchi tizimlar yordamida veb-saytlarni yaratmoqda. Xo'sh, CMS degani o'zi nima? Bu tizimni nima ekanini tushunish uchun, keling, avvalo, veb-sahifalar qanday yaratilishi haqida bilib olamiz.

1989-yilda Tim Berners-Li tomonidan World Wide Web, ya'ni Butunjahon o'rgimchak to'ri ixtiro qilinganidan boshlab uning har bir foydalanuvchisi oddiy bo'lsa-da, o'z veb-sahifasini yarata olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Lekin, buning uchun HTML (Hyper Text Markup Language) tilini bilish shart edi. Turli xil IT-kompaniyalari tomonidan bu ishni osonlashtiruvchi bir qancha dasturiy paketlar, jumladan Adobe Dreamweaver va Microsoft FrontPage kabilar yaratildi. Bunday dasturlardan ba'zilari sayt yaratishning barcha bosqichlarini (HTML-kodni yozishdan bu kodni serverga yuklashgacha) boshqarishni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, ko'pgina hollarda (aynan oddiy sahifalarni yaratishda) foydalanuvchi bu kodni bilishi shart bo'lmagan. Sababi bu dasturlarda veb-sahifalarni yaratishning vizual usullaridan foydalanilgan.

HTML-redaktorlarining barcha afzalliklariga qaramay, saytni boshqarish vaqt o'tgani sayin va yangi ma'lumotlar qo'shilishi bilan qiyinlashib boraverdi. Chunki axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan veb-saytlar ham rivojlanib bordi. Sayt xaritasini yaratishdek oddiy funksiyani qo'shish uchun ham veb-yaratuvchilar tomonidan ancha-muncha mehnat talab etilar edi. Axir buning uchun barcha ilovalarni ko'rib chiqish, sahifalar orasidagi bog'liqliklarni tekshirish, menyuni yaratish, forumni qo'shish kabi ishlarni bajarish lozim edi. Bu esa doimiy diqqatni va juda ko'p vaqtni talab etardi.

Sayt yangilanishi muammosini, ya'ni yangilanishning avtomatlashtirishini hal qilish maqsadida yirik axborot kompaniyalari, jumladan, Newsweek va Time yangi dasturiy ta'minot yaratish ishlarini boshlashga majbur bo'ladi. Bu dasturiy ta'minotlar kontentni (ma'lumotlarni) boshqarish tizimlari (CMS – Content Management System) deb ataldi.


Endi savol tug'ilishi mumkin: oddiy HTML kodida yozilgan sahifa bilan CMS nimasi bilan farq qiladi? Avvalombor, HTML da yozilgan sayt statik holda bo'lsa, zamonaviy saytlar dinamik ko'rinishga ega.

Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, page.html sahifasiga murojaat qildi deylik. Veb-server o'zidagi veb-sahifalar katalogini ko'rib chiqadi va agar page.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi xabarni ("Fayl topilmadi") yetkazadi.

Dinamik sayt esa biroz boshqacha ishlaydi. Foydalanuvchi biror sahifaga murojaat qiladi, biroq bu murojaat diskdagi aniq bir faylga emas, balki sayt dvijokiga (agar dvijok PHP tilida yozilgan bo'lsa, odatda bu fayl index.php bo'ladi) qaratilgan bo'ladi. Dvijok foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni biror manbadan (masalan, ma'lumotlar bazasi yoki diskdagi fayldan) oladi, uni HTML-sahifaga aylantiradi va veb-serverga uzatadi, u esa o'z navbatida, foydalanuvchi brauzeriga jo'natadi.

Unda yana bir savol tug'iladi: agar bitta faylnigina so'rab, uni brauzerga uzatish mumkin bo'lsa, buncha murakkablashtirishning o'zi nimaga kerak? Shuning uchunki, bu saytni boshqarish qulay bo'lsin. Aytaylik, siz 100 sahifalik (bu unchalik ko'p emas) oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-kech siz bu sayt dizaynini, ko'rinishini o'zgartirmoqchi bo'lasiz. U holda esa siz shu 100 sahifani qo'lda o'zgartirib chiqishingizga to'g'ri keladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu 100 sahifani kompyuteringizdagi lokal


serverga yuklab olishingiz, undan so'ng tahrirlab, kerakli o'zgartirishlarni kiritishingiz va oxirida yana serverga yuklashingiz kerak bo'ladi.



Veb-serverning CMS siz holda qanday ishlashi

Ana endi dinamik sayt qanday ishlashini ko'rib chiqaylik. Asosiy voqea – "HTML-sahifani yaratish". Ya'ni dvijok kontentni – matnli ma'lumotni (u rasm va jadvallar bilan ham bo'lishi mumkin) oladi va uni dizaynga "kiyintiradi". Demak, saytning dizaynini o'zgartirish uchun siz faqatgina tayyor grafik mavzuni o'rnatishingiz yoki bir-ikkita faylni – sayt shabloni fayllarini o'zgartirishingiz kerak.

CMS tizimi sahifalarni dinamik ko'rinishga keltiradi: ular foydalanuvchi sahifani ko'rmoqchi bo'lgandagina amalda yaratiladi. Bu degani, sahifalar foydalanuvchi tomonidan bevosita ko'rilayotganda yangilanishi yoki o'zgartirilishi mumkin.



Veb-serverning CMS bilan qanday ishlashi

CMS afzalliklari

Bu tizimlarning asosiy jihati shundaki, dinamik veb-sahifalarni oson yarata olish va ularni turli xil axborot bilan to'ldirish imkoniyatini berishdir. CMS tizimlari odatda murakkab bo'lib, ular o'z ichiga xabarlarini tarqatish xizmatlari (RSS), forumlar va internet-do'konilarni oladi. Shu bilan birga, ularni o'zgartirish ham oson.

CMS nafaqat saytdagi turli ma'lumotlarni boshqarishni avtomatlashtiradi, balki shu bilan birga, sayt tuzilishining texnik tomonlari bilan tanish bo'lmaganlar, ya'ni yozuvchi va jurnalistlarga saytda o'z materiallarini bevosita foydalanuvchi interfeysi orqali qo'shish imkoniyatini beradi. Shu narsa tushunarli bo'ldiki, endi foydalanuvchilarga saytda o'z materiallarini ko'rish uchun HTML ni ham, saytdagi ma'lumotlar yangilanishining texnologiyasini ham bilishi shart emas.

CMS tizimi, shuningdek, veb-sayt yaratishni turli xil mutaxassislar orasida taqsimlab chiqish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, veb-dizayner o'z diqqatini saytning ko'rinishiga (dizaynni

mukammallashtirish va shablonlarni o'rnatishga) qaratsa, texnik yo'nalishda bo'lmagan mutaxassislar uni ma'lumotlar (matn, tasvir va animatsiyalar) bilan to'ldirishga harakat qiladi.

Bu ham hammasi emas. Ma'lumki, dvijok – CMS ning bir qismi xolos. U dizayn shabloni asosida sayt ma'lumotlarini chiqarib beradi. Bundan tashqari, CMS da saytdagi ma'lumotlarni boshqarish (ular sayt bo'limlarini va kategoriyalarini yaratishga va ma'lumotlarni ular orasida bo'lib chiqishga imkon beradi) va bu ma'lumotlarni tahrirlash vositalari ham mavjud. Shu bilan birga, foydalanuvchi sayt ma'lumotlari aynan qayerda (ma'lumotlar bazasida, diskda HTML-fayl ko'rinishida yoki umuman tashqi serverda) saqlanayotganini bilishi shart emas.

CMS qo'llanilishi bilan ko'pgina qiyinchiliklar bartaraf etilishi mumkin. Yuqorida misol sifatida ko'rilgan sayt xaritasi ham avtomatik ravishda tuziladi, buning uchun foydalanuvchidan hech qanday mehnat talab etilmaydi. Shu bilan birga, CMS saytdagi qo'shimcha funksiyalarni, masalan, suratlar galereyasi yoki ro'yxatdan o'tish oynasini qo'llash imkonini beradi – shu kabi funksiyalar CMS kengaytmalari orqali amalga oshiriladi. Faqatgina u yoki bu kengaytmani o'rnatish kerak xolos.

CMS ga o'tishning o'ziga xos qiyinchiliklari

Xo'sh, CMS larning shuncha afzalliklari bo'lganda nima uchun barcha sayt egalari Joomla! yoki Drupal kabi CMS larga otishga intilmayapti? Bunga bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi sabab, inertsia bo'yicha ketish yoki boshqacha aytganda, o'zi bilgan narsaga o'rganib qolish. Inson HTML ni ishlatishga o'rganib qoladi va CMS ga o'tish saytni boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha qancha qulayliklar keltirmasin, biror narsani o'zgartirishni xohlamaydi. HTML dan CMS ga o'tish-yillar ichida amalga oshishi mumkin.

Ikkinchi sabab, mavjud minglab HTML-sahifalarni CMS ma'lumotlar bazasiga moslab o'zgartirish kerak bo'ladi. Aksariyat hollarda buni qo'lda bajarish kerak bo'ladi. Katta sayt uchun bu jarayon ancha ko'p vaqtni oladi, bu esa saytni vaqtinchalik faoliyatining to'xtashiga va balki, kompaniya tomonidan ko'riladigan moliyaviy zararga olib keladi. Albatta, CMS ga o'tish saytni boshqarish bo'yicha ancha vaqt tejalishini hisobga olsa, kelajakda bu o'zini oqlaydi.

Endi, CMS ga o'tishga halaqit beruvchi faqatgina bitta to'siq qoladi – texnik holat. Deyarli barcha zamonaviy CMS ishlashi uchun xostingda PHP interpretatori va MySQL ma'lumotlar bazasi serveri bo'lishi kerak. Besh-olti-yil avval shu kabi funksiyalarni taqdim etuvchi xosting-provayderlar kam edi. Hozirga kelib, vaziyat yaxshi tarafga o'zgardi va PHP hamda MySQL ni qollaydigan xostingni O'zbekistonning o'zida topish qiyinchilik tug'dirmaydi.

2.2. Dinamik va statik saytlar yaratishning dasturiy vositalari

Hozirgi davrga kelib, CMS asosiga qurilgan bir qancha tizimlar yaratilgan. Ularga misol qilib, Drupal, PHP-Nuke, WebDirector, Joomla!, NetCat, Slaed, Microsoft CMS, WordPress, PHPShop kabilarni keltirish mumkin. Bu tizimlarning ba'zilar umuman tekin bo'lsa, ba'zilaridan esa haqqini to'labgina foydalanish mumkin.

CMS ni tanlash bir tomondan oson va jo'ndek ko'rinsada, bu juda jiddiy masala. Internetda ularning turli yo'nalishdagi o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa): yuz dollarlab turadiganidan to ochiq kodli bepul turigacha, ma'lum bir sohagagina taalluqlisidan ixtiyoriy murakkablikdagi sayt qurish imkonini beradiganigacha, oson boshqariladiganidan administrator uchun katta qiyinchiliklar keltiradiganigacha turini topishingiz mumkin. Xullas, agar CMS lar bilan ishlash bo'yicha hech qanday tajribangiz bo'lmasa, keraklisini tanlash qiyinlashib ketishi tayin.

Dastlab keling, pullik CMS larni ishlatmaslikka harakat qilamiz. Axir katta pul to'lab, CMS ni ishlatishdan besamara foydalanishga naxojat. Shu yerda bir narsani aytib o'tish kerak: bu bilan o'zimizga qiyin qilamiz. Boshqa tarafdin esa, qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik qiziq bo'lishi aniq, shunday emasmi?

Endi CMS larga yana bir talab qo'yamiz: universallik. Bu degani, biz ishlatmoqchi bo'lgan CMS ixtiyoriy konfiguratsiyadagi kompyuterlarda ham ishlay olishidir. Shuningdek, saytni lokal serverdan haqiqiy serverga ko'chirganimizda yoki bevosita serverning o'zida yaratayotganimizda CMS bilan hech qanday qiyinchiliklar tug'ilmasligi kerak. Bu talabga esa, afsuski, ko'pchilik bepul CMS lar javob bera olmaydi.

Barcha dasturiy ta'minotlarga qo'yiladigan talablardan yana biri – xavfsizlik (axir siz haftalab-oylab yaratgan saytingizni shunchaki qiziqish uchun bir kunda buzishlarini xohlamasangiz kerak?). Shuning uchun CMS larning xavfsizlik darajalari doimiy yangilanib turishi shart.

Natijada, talablarimizga deyarli to'liq javob beradigan quyidagi: PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS tizimlarigina qoladi. Endi ana shu CMS larni batafsilroq ko'rib chiqamiz va o'zimizga kerakli ba'zi xulosalar chiqaramiz.

PHP Nuke. Eng birinchi CMS lardan biri bo'lib, afsuski, ancha vaqtlardan buyon yangilanmay kelmoqda. Biroq, uning kodi ko'plab adashlari uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda (masalan, DotNetNuke, PostNuke). Bu bir-biriga nom jihatdan yaqin bo'lgan tizimlar foydalanuvchi diqqatiga navbatma-navbat chiqib turadi. Funksionallik jihatidan tizim ancha mukammal bo'lib, uning uchun ko'plab qo'shimcha modullar yaratilgan. Masalan, xabarlar lentasi, forum, maqolalar, so'rovlar tashkil qilish, statistika olib borish va boshqalar. Ammo, saytlarning tuzilishi jihatidan bir xillik kuzatiladi. Shu bilan birga, bu tizim yuklanishi qiyin bo'ladi, ya'ni qo'shimcha modullar sahifa yuklanishini sekinlashtiradi. Bu esa ko'plab foydalanuvchilarga yoqmasligi tayin. Yuklanish nafaqat sahifaga, shuningdek, serverga ham tushadi, bu esa xosting xizmatini taqdim etuvchilarga yoqmaydi. Agar sizni shunday vaziyat qoniqtirsa, aynan shu CMS ni tanlashingiz mumkin. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.nukefiles.ru

Drupal. Turli xil o'zgartirishlar orqali o'zimizga moslab olish bo'yicha eng mukammal CMS deb aytish mumkin. Shu yerda shuni aytish kerakki, "Tomchi" (bu tizim nomi ingliz tilidan aynan shunday tarjima qilinadi) aslida, CMS emas, balki "CMS ni tuzuvchi tizim". Uning yordamida siz tayyor bloklardan kerakli CMS ni yig'asiz. Shuni aytish mumkinki, funksionallik va dizayn jihatidan o'zingizni qanoatlantiruvchi CMS ni hosil qilasiz. Standart modullar to'plamiga blog, forum, xabarlar lentasi, fayllarni yuklash, ovoz berish, qidiruv kabilar kiradi. Bunda ko'rinadigan kamchilik bitta: PHP va MySQL ni mukammal bilish lozim. Agar bu qisqartmalarni tushunmagan bo'lsangiz, keyingi CMS ga o'tavering, aks holda esa bu tizimga jiddiyroq e'tibor bering. Rasmiy sayti: www.drupal.org. Texnik yordamni www.drupal.ru saytidan ham olishingiz mumkin.

